XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 20 - noyabr VI-84-144-9-130-K/23 Guliston shahar hokimligi

Guliston shahar mahalliy budjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1.Guliston shahar hokimining shahar mahalliy budjetining daromadlarining 2023 yil 3-chorak yakunlari bo‘yicha aniqlangan daromadlarni rejadan oshirib bajarilgan hisobiga shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2.Guliston shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlar Guliston shahar Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3.Shahar mahalliy budejtining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:

- shahar budjetining yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;

- shahar budjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni rejadan oshirib bajarilishidan;

- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan shahar budjetiga tushgan mablag‘lardan;

- “E-IJRO AUKSION” electron savdo maydonchasida yeruchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan shahar budjetiga tushgan mablag‘lari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan tadbirlarni bajarish maqsadida hamda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlariga tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

5.Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi mahalliy budjetni shakllantirish va ijroetish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

- 2023yil 3-charakda shahar mahalliy budjetida shakllanadigan qo‘shimcha manbalari hisobidan kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirishini nazoratga olish;

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

6. Budjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Guliston shahar Kengashga taqdim etib boorish vazifasi yuklatilsin.

7.Qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar shahar hokimligi axborot xizmati (Sh.Yunusov)ga shaharning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib boorish vazifasi yuklatilsin.

8.Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari G‘.Botirov zimmasiga yuklatilsin.

9. Qaror rasmiy nashrda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

Guliston shahar hokimi **T.T.Dadabayev**

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2023-yil 20-noyabrdagi
VI-84-144-9-130-K/23-son qaroriga
1-ilova

Guliston shahar hokimining shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2023 yil 3-chorak yakunlari bo‘yicha aniqlangan daromadlarni rejadan oshirib bajarilgan hisobiga shakllangan qo‘shimcha manbaalari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risidagi

mln.so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar		Mablag‘ ajratish
	Shahar bo‘yicha		**988,0**
1	PQ-5020 ga asosan “Ayollar daftari jamg‘armasi”ga (15%)		50,0
2	Guliston shahar hokimligi binosining kommunal to‘lovlari uchun elektr energiya, gaz va suv		30,0
3	Guliston shahar 4-mavzedagi Tadbirkorlar va hunarmandlar xiyoboni kirishiga o‘rnatilgan sher va otlar monumenti o‘rnatilishi bilan bog‘liq xarajatlar uchun		250,0
4	“Nurafshon” MFY binosi qurilishidan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash xarajatlari uchun		30,0
5	“Xavfsiz shahar” jamoat tartibi loyihasi doirasida Guliston shahar hududida o‘rnatilgan hozirgi kunda nosoz 37 dona video kuzatuv kamerasi va 3 dona (SOS) qurilmasini ishga tushirishda zarur bo‘lgan texnik qurilmalarni xarid qilish uchun o‘rnatilgan kameralar uchun internet obonent to‘lovi va o‘natiladigan kameralar xarajatlari uchun		38,0
6	“Xavfsiz shahar” jamoat tartibi loyihasi doirasida Guliston shahar 2-son IIB kuzatuv markazida o‘rnatilgan elektron qurilmani ta’mirlash xarajatlari uchun zarur bo‘lgan texnik qurilmalarni xarid qilish uchun		44,0
7	Internet va telefon to‘lovlari uchun		10,0
8	Ijtimoiy xizmatlar markazini jihozlash xarajatlari uchun		251,0
9	Shahar obodonlashtirish boshqarmasiga ehtiyot qismlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun		70,0

10	Shahar obodonlashtirish boshqarmasiga mavsumiy gullar sotib olish va ekish bilan bog‘liq xarajatlar uchun		130,0
11	Sirdaryo viloyati hokimining 2023 yil 30-avgustdagi 1/01-983-sonli xatidagi topshiriqga asosan		8,0
12	Saylov uchastkasiga o‘rnatilgan konditsionerlar bilan bog‘liq xarajat uchun		40,0
13	Shahar ko‘chalariga o‘rnatilgan bannerlar uchun		37,0